



ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2022**



MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'ri	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'ri	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'ri	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'ri	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqa muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash	122

Sanjar AZIMOV

Buxoro davlat universiteti

tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## TASVIRIY SAN'ATDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI

Ushbu maqolada o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri bo'lgan umumta'lim maktabi tarbiyaviy ishining ajralmas qismi bo'lgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar g'oyasi va ularning ahamiyati muhokama qilinadi. O'quvchilar, albatta, o'quv materialining asosiy mazmunini sinfda dars jarayonida o'zlashtira oladilar. Biroq, talabalarga tarix dasturini o'rganish uchun zarur bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni auditoriya mashg'ulotlari hajmiga kiritib bo'lmaydi. Bundan tashqari, talabalar tarixiy bilimlar, ilmiy va siyosiy ma'lumotlarning tez o'sib borayotgan miqdori sharoitida o'z bilimlarini kengaytirishni davom ettirishlari uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Darsdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga ta'lim va bilim berishga qaratilgan turli xil tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Bunday mashg'ulotlarni sinfdan tashqari pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari va bolalar o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari rahbariyati tashkil etadi.

*Kalit so'zlar:* tasviriy san'at, sinfdan tashqari ish, tarix, mashg'ulot, to'garak, tasviriy faoliyat.

*В данной статье обсуждается идея внеклассных мероприятий и их значение, которые являются составной частью воспитательной работы общеобразовательной средней школы, одной из форм организации свободного времени учащихся. Студенты, конечно, смогут освоить основное содержание учебного материала во время урока в классе. Однако все знания и навыки, необходимые студентам для изучения программы по истории, также не могут быть включены в объем аудиторных занятий. Кроме того, крайне необходимо наладить хорошие внеклассные занятия, чтобы учащиеся могли без перерыва пополнять свои знания в условиях быстрого увеличения объема исторических знаний, научной и политической информации. Внеклассная работа создает широкие возможности для формирования учащихся как гармоничной личности и подготовки их к жизни. Внеклассные мероприятия включают в себя разнообразную систему мероприятий, которые проводятся со студентами и направлены на предоставление им образования и знаний. Такие занятия организуются во внеклассное время педагогическим сообществом, руководителем класса, руководством молодежных организаций и организаций детского самоуправления.*

*Ключевые слова:* изобразительное искусство, внеклассная работа, история, уроки, кружки, изобразительная деятельность.

*This article discusses the idea of extracurricular activities and their significance, which are an integral part of the educational work of a comprehensive secondary school, one of the forms of organizing students' free time. Students, of course, will be able to master the main content of the educational material during the lesson in the classroom. However, all the knowledge and skills necessary for students to study the history program cannot also be included in the scope of classroom classes. In addition, it is extremely necessary to establish good extracurricular activities so that students can replenish their knowledge without interruption in the face of a rapid increase in the volume of historical knowledge, scientific and political information. Extracurricular work creates ample opportunities for the formation of students as a harmonious personality and preparing them for life. Extracurricular activities include a diverse system of activities that are conducted with students and aimed at providing them with education and knowledge. Such classes are organized during extracurricular time by the pedagogical community, the head of the class, the leadership of youth organizations and organizations of children's self-government.*

*Key words:* fine arts, extracurricular activities, history, lessons, circles, visual activities.

**Kirish.** Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim o'rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik kabi san'at turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bular sinfdan tashqari ishlar, to'garaklardagi mashg'ulotlar, uchrashuv, ko'rgazma, tanlov, san'at kechalari kabi qator yo'nalishlarda o'tkaziladi va ular o'quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va iste'dodni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga u yoshlarning badiiy va estetik fikr doirasini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

Asosiy qism. Ma'lumki o'quvchilarga tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha bilimlar berishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlarning mohiyati shundan kelib chiqadiki, sinfda o'tiladigan mashg'ulotga ajratilgan vaqt davomida o'quvchilar berilgan topshiriqni o'z vaqtida bajara olmaydilar va shuning uchun qolganini mustaqil bajarish uchun uyga vazifa beriladi. Uyga berilgan vazifani mustaqil bajarish o'quvchidan ma'lum bir bilim va mehnatni talab qiladi. O'quvchining tasviriy san'at bo'yicha olgan nazariy bilimlari ko'p hollarda mustaqil ishlashga yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun talabaga sinfdan tashqari ishlar orqali bilimlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tasviriy, amaliy san'atda tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarini qamrab olishi mumkin. Ular kichik (1-4-sinflar), o'rta (5-7-sinflar), katta (8-9-sinflar) guruhlardan tashkil topadi va ular rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, shuningdek, me'morchilik, san'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

Maktab to'garaklarining maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanar ekan, ularni qat'iy reja asosida muntazam olib borilishi talab etiladi.

To'garaklarda tasviriy va amaliy san'at ta'limi mazmuni alohida e'tiborga loyiq. Ta'lim mazmunining to'g'ri belgilanishi to'garak ishini muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o'rganib chiqishi va shu asosda o'zining mahalliy sharoitlari, bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlari, moddiy-texnikaviy asosning mavjudligiga qarab ta'lim mazmuniga oid o'z rejasini ishlab chiqadi.

To'garaklar har bir maktabda san'atning turlari, guruhlari bo'yicha bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak rahbarining asosiy e'tibori quyidagilarga qaratilishi lozim.

- tasviriy yoki amaliy san'at to'garaklariga qiziqishi va qobiliyati bor o'quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruhda ularning soni 10-15 nafardan oshmasligi, aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi;

- to'garakda bolalarning qiziqishi, idroki, tasviriy malakalari, ijodiy qobiliyatlari o'rganilib va ma'lum vaqt mobaynida sinovdan o'tkazilib, qabul qilinishi.

O'rganiladigan mavzuning maqsad va vazifalari, mazmuniga qarab mashg'ulotlar rasm ishlash, ma'ruza, subbat, munozara, seminar, insho yozish, testlar yordamida o'tkaziladi. Imkoni boricha amaliy ishlarni turli o'quv qurollari, badiiy va tabiiy materiallar, turli tasvirlash texnikasi yordamida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy materiallar hisoblangan akvarel, guash, pastel, sangina, ugol, rangli qog'ozlar, tush, tabiiy materiallardan-barglar, gullar, meva va sabzavot urug'lari, rangli toshlar, chig'anoqlar, qush patlari shular jumlasidandir. Bunday materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarni turli-tuman va qiziqarli bo'lishni ta'minlaydi.

To'garak mashg'ulotlariga xos bo'lgan jihatlardan yana biri - bu rasm ishlanadigan qog'oz formati, o'lchovi, shakli, rangining turlicha bo'lishligidir va ular mavzuning mazmuniga bog'liq holda tanlanadi.

To'garak mashg'ulotlari uchun mavzu tanlashda o'qituvchi o'zidagi mavjud shart-sharoitlar, o'quvchilarning qiziqishlari, turli-tuman bo'lishligiga e'tiborni qaratmog'i darkor.

To'garaklar tasviriy va amaliy san'atning qaysi turi yoki janri yuzasidan bo'lishligidan qat'iy nazar, u amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi.

Amaliy san'atga doir (naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik v.b.) to'garaklarda bolalar naqsh namunalaridan ko'chirish, mustaqil ijodiy kompozitsiyalar ishlashdan tashqari tasviriy san'at to'garaklaridagi kabi naturaga qarab rasm ishlash bilan ham shug'ullanadilar. Bunday darslarda o'qituvchi tasvirlashning nazariy asoslari hisoblangan yorug' soya, perspektiva, rangshunoslik qonunlariga ham alohida e'tibor beradi. Bu qonunga doir maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi ham mumkin.

Rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika to'garaklari mashg'ulotlarida kompozitsiyalar ishlashga katta o'rin beriladi. Bolalar tasviriy san'atni barcha janrlari (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, animal, portret, afsonaviy, marina) bo'yicha mustaqil kompozitsiya ishlash, tayyor san'at asarlari namunalaridan ko'chirish bilan shug'ullanadilar. Ular adabiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash, badiiy bezak ishlariga doir topshiriqlarni ham bajaradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida to'garak a'zolarining yoshlari yoki guruhlarga qarab tabiat mashg'ulotlari (barglar, gullar, meva va sabzavotlar), uy-ro'zg'or, mehnat buyumlari, texnika, sport, san'atga doir predmetlar, me'morchilik obidalari, turgan yoki harakatdagi odam, qush, hayvonlar rasmlari chizdiriladi.

Bunday mashg'ulotlarda, gipsli geometrik shakllar, rozetkalar, odam va hayvonlarning gipsli shakllari, meva va sabzavotlarning mulyajlari, qush va kichik o'lchovdagi hayvonlarning tulumlarini o'quv mashg'ulotlarida chizdirish qo'yilgan maqsadga erishishni yengillashtiradi. Yuqorida qayd qilingan buyum va narsalar topshiriqning vazifasiga qarab alohida yoki ko'p holda, harakatda yoki harakatsiz holatlarda chizdirilishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar mavzuga oid rassomlar asarlarining reproduksiyalarini

namoyish etish va tahlil qilish bilan qo'shib olib boriladi. Shuningdek, bu mashg'ulotlarni uzoq, qisqa muddatda, darsda, mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Tasviriy va amaliy san'atdan nazariy bilimlar to'garaklarning turiga qarab oddiy yoki murakkab mazmun va hajmda beriladi.

Xususan:

1. San'atshunoslik to'garaklari (Tasviriy san'atning alohida tur va janrlari. O'zbekiston tasviriy san'ati. U yoki bu davr tasviriy san'ati). Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar bolalarga ancha keng va chuquroq hajmda beriladi.

2. Tasviriy san'at (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) to'garaklari. Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar o'rtacha hajmda beriladi.

3. Amaliy-bezak san'ati to'garaklari. Bunday to'garaklarda nazariy bilimlar qisqartirilgan hajmda beriladi. Biroq, xalq amaliy san'ati tarixi uni nazariy asoslari, xalq ustalari, amaliy san'atda ishlatiladigan ish qurollari va jihozlar, materiallar, ish uslublari, xalq san'ati rivoj topgan markazlar, san'at va viloyat o'lkashunoslik muzeylari, ulardagi eksponatlar haqida keng ma'lumotlar berilishi talab etiladi.

Rangtasvir to'garaklari san'atshunoslik asoslari bo'yicha to'garak rahbari san'atining kishilar hayotidagi ahamiyati, tasviriy san'atning tur va janrlari, amaliy-bezak san'ati, me'morchilik san'atiga doir ma'lumotlarni ham beradi. San'atshunoslik yuzasidan olib boriladigan ishlarni imkoni boricha amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lab olib borilishi samarlidir. Shunga qaramasdan to'garak mashg'ulotlarida bolalarni muzeylarga, ko'rgazmalarga, rassomlarning ustaxonalariga olib borilishi, ularning tasviriy-ijodiy ishlar tanlovi va ko'rgazmalarini o'tkazilishi nihoyatda zarur. Mashg'ulotlarni san'at asarlarining reproduksiyalari, slayd va diapozitivlari, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar namoyish etish orqali o'tkazilishi katta foyda beradi.

Ta'lim berish sifatini oshirishda sinfdan tashqari ishlardan biri bo'lgan ekskursiyaning o'ziga xos xususiyati va katta ahamiyati bor ekan. Bu shundan kelib chiqadiki, Buxoro shahri tarixiy obidalarga juda boy shahar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at bo'yicha bilimlar berish samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ekskursiyani samaradorligini oshirish o'qituvchi tomonidan uning qanday va qaysi maqsadlarda uyushtirishga bog'liq.

Ekskursiya jarayonida muzeylarga sayohatlar, rassomlarning ustaxonalariga, haykaltaroshlik yodgorliklariga, ko'rgazmalarga tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Natijada bolalar san'at asarlarining asl nusxalari bilan tanishadilar, ularning yaratilish jarayonining shohidi bo'ladilar. Odatda bunday sayohatlarga o'qituvchi ham, o'quvchilar ham katta tayyorgarlik ko'radilar, bu tadbirning rejasini tuzib oladilar. Rassom ustaxonasiga sayohatlar uyushtirilganda rassomlar o'zlarining hayotlari va ijodlari, kelajak rejaları haqida atroflicha gapirib beradilar, o'z asarlari bilan tanishtiradilar va ularning yaratilishi tarixi haqida hikoya qilib beradilar. Rassomning jonli nutqi va uning hikoyasi bolalarni hayajonlantiradi, ularning xotirasida o'chmas iz qoldiradi.

Rejada sayohat qayerda tashkil etilishi va unga qachon borilishi, kim bilan uchrashishi, u yerda nimalarni ko'rilishi, kim bilan nimalar haqida suhbat bo'lishi bayon etiladi. Agarda muzey, bironta yodgorlik yoki rassom ustaxonasiga boriladigan bo'lsa u haqida sayohatdan oldin bolalarga qisqacha ma'lumot beriladi. Sayohat vaqtida bolalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan rassom, muzey xodimiga murojaat etadilar. Sayohatdan so'ng o'qituvchi bolalar bilan sayohatdan olgan taassurotlari bilan fikr almashadilar.

**Xulosa.** Shunday qilib, tasviriy san'at va amaliy san'at bo'yicha beriladigan bilimlar samaradorligini oshirishda sinfdan tashqari ishlar ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilar san'at asarlarini o'z ko'zlari bilan ko'radilar va ulardan amalda foydalanishga harakat qiladilar.

#### Adabiyotlar

1. Talabalarning kasbiy fanlardan kompetensiyalarini takomillashtirishda tasvirlash texnik mahoratlarining ahamiyati *Myfal'lim xam uzliksez bilimlendiriy.* -Hukuc.- № 4. 2020. – B.37-42
2. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi (tasviriy san'at mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi) (o'quv qo'llanma). Buxoro: "Durdona", 2020. -216 b.
3. Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства *Вестник науки и образования* № 21 (99).часть 2. -Москва, 2020. -С105-108.
4. Methods Of Developing Students' Spatial Imagination Using Computer Graphics In The Teaching Of Drawing *Journal of Contemporary Issues in Business and Government –Australia, 2021.* –P. 1522-1528
5. Methods of Using Programmed Means to Organize Practical Training for Improving the Professional Skills of Future Teachers of Fine Arts.